

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в.б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳафсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li</i> AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR	9-15
<i>Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович</i> ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ	16-20
<i>Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich</i> SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT SIYOSATI	21-26
<i>Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович</i> КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)	27-32
<i>Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ	33-41
<i>Bobodustov Bobur Mirzaboyevich</i> ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI	42-47
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i> XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА	48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Казаков Олим Сабирович</i> ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	56-60
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i> CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	61-67
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i> TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	68-76
<i>Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович</i> ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА	77-82
<i>Xolmurotov Fozil Saribayevich</i> MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH	83-91
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i> ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	92-100

<i>Гойипназаров Санжар Баходирович</i> СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР	101-110
--	---------

<i>Baxtiyrov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MONIYATI	111-119
--	---------

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Юлдашев Фаррух Абдурахманович</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ	120-126
--	---------

<i>Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли</i> ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	127-132
--	---------

<i>Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA ASOSLARI	133-137
--	---------

<i>Abdullayev Temur Bobir o'g'li</i> TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI	138-143
---	---------

<i>Islamov Kamol Tashkulovich</i> UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR NISBATI	144-150
---	---------

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	151-160
--	---------

<i>Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li</i> AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISHI	161-167
---	---------

<i>Мухамедова Феруза Баходир кизи</i> ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. КИМА.....	168-174
--	---------

<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanyovich</i> TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI	175-180
---	---------

<i>Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda</i> FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARINING QO'LLANILISHI	181-185
---	---------

<i>Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI	186-190
---	---------

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Жавлиев Нурали Баходирович

МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ191-195

Узакова Гўзал Шариповна

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204

Usmanov Alisher Tolmasovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213

Авезова Элеонора Парахатовна

РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218

Мукумов Бобур Мелибой угли

ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224

Туракулова Назира Абдишукуровна

СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Хўжамкелдиев Ғафур Султон ўгли

СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237

Aziz Xasanovich Rajabiy

BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242

Malikova Sevar Samatovna

BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246

Васильченко Ольга Анатольевна

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251

Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich

AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257

Асадуллаева Наргиза

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265

Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОFAZASI VA ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

13.00.00- Педагогика фанлари

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich
Farg'ona davlat universiteti rektori
Pedagogika fanlari doktori, professor

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi
Farg'ona davlat universiteti doktoranti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR
MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI**

Annotatsiya. Maqolada chet tillarni o'qitish, o'rganish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar va ularning MDH olimlari tomonidan o'rganilishi yuzasidan fikrlar keltirib o'tilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlarning chet til o'rganishdagi ahamiyati yoritilgan va xatolar yuzasidan mualliflik xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, o'qitish, o'rganish, xato, o'qituvchi, analiz, klassifikatsiya.

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich
Rector of Fergana state university
Doctor of pedagogy, Professor

Khasanova Ozodaxon Kurvonali kizi
DS doctorant of Fergana state university
PhD on pedagogy sciences

**ANALYSIS OF RESEARCH CONDUCTED BY CIS SCIENTISTS ON THE TOPIC OF ERRORS IN
FOREIGN LANGUAGE LEARNING**

Abstract. In the article, the errors encountered in the process of teaching and learning foreign languages and their study by CIS scientists and the author's conclusions regarding errors are given.

Key words: foreign language, teaching, learning, error, teacher, analysis, classification

Шермухаммадов Баходиржон Шермухаммадович
Ректор Ферганского государственного университета
Доктор педагогических наук, профессор

Хасанова Озодахон Курвонали кизи
ДС докторант Ферганского государственного университета
Кандидат педагогических наук, (Phd)

**АНАЛИЗИ ПРОВЕДЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ УЧЕНЫМИ СНГ НА ТЕМУ ОШИБОК
ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ**

Аннотация. В статье упоминаются ошибки, встречающиеся в процессе преподавания и изучения иностранных языков и их изучения учеными СНГ. Подчеркивается значимость проведенных исследований в иностранному языку и даются авторские выводы относительно ошибок.

Ключевые слова: иностранный язык, обучения, изучения, ошибка, преподаватель, анализ, классификация

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N46>

Kirish. Chet tili o'qitish jarayonida xatolarni analiz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar tushunarlikka ta'sir etuvchi hamda tushunarlikka ta'sir etmaydigan turlarga ajratiladi. Shu sababli bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining xatolarini analiz qilish, ularni ham xatolarni tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish muhim. S.Chekanovning fikriga ko'ra, chet til o'rganish jarayonida yo'l qo'yilgan xato albatta muhokama qilinishi, xatoga sharh berilishi va analiz qilinishi lozim. Bu nafaqat til o'rganuvchilarning tilni egallash darajasini o'stirishga, balki o'qituvchining boshqa til o'rganuvchilarga ham murakkab bo'layotgan o'quv materialini qayta ishlashga yordam beradi [15; B-276—278.]. Shu sababli rus tadqiqotchilari ham chet tillarni o'rganishda xatolar bilan ishlashga katta ahamiyat berishadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Chet tillarni o'rgatish va o'rganishda uchraydigan xatolar, ularni to'g'rilash, bartaraf etish, xato tushunchasini yoritish borasida dunyo olimlari ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu o'rinda MDH davlatlari olimlari tomonidan ayni mavzuda olib borilayotgan tadqiqotlarning ham ahamiyatini ta'kidlash lozim. Quyida ularga batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

O'zbekistonlik zabardast uslubshunos olim J.Jalolov o'zining "Chet tili o'qitish metodikasi" darsligida chet tillarni o'rganishda xato tushunchasi qanday ahamiyat kasb etishi haqida bir necha o'rinda fikr bildirib o'tadi. Xususan olimning "...xatolarni dinamika (harakat)dagi qiyinchiliklar, deb atash ham mumkin. Metodikada tarqalgan „xatolarning oldini olish“ tushunchasi mantiqan noto'g'ri, chunki qiyinchiliklar oldi olinadi, xatolar bartaraf etiladi. Qiyinchilik bor ekan, uning soyasi yanglig' xatolar hamroh bo'la beradi. Qiyinchilik yo'qolsa, uning oldi olinsa, o'z -o'zidan xatoni bartaraf etish chorasi ko'rilgan bo'ladi. Chet til o'qitish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar maxsus tasniflashtiriladi" degan fikri juda o'rinlidir [16; B.36.].

M.Lopinova va bir qator mualliflar tomonidan yozilgan "Понятие "ошибка", причины возникновения и классификация ошибок в методике преподавания иностранного языка" (Xato tushunchasi, chet til o'qitish metodikasida xatolarni kelib chiqish sabablari va klassifikatsiyasi) nomli maqola chet tillarini o'qitish metodikasida "xato" konseptini aniqlashga qaratilgan turli usullarni va muloqotdagi xatoliklar uchun asosiy sabablarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqola til o'rganishdagi xatoliklar uchun turli xil sabablarni, masalan, til o'rganuvchining yoshi, muloqot va o'rganish strategiyalari, shaxsiy, madaniy, psixologik va ijtimoiy-falsafiy sabablarni ko'rib chiqadi. Maqola aynan shu sabablarga ko'ra, og'zaki va yozma muloqotda xatoliklar uchun turli xil tasniflarni taklif qiladi va nemis tilidagi yozma nutqda uchrashi mumkin bo'lgan xatoliklar jadvali bilan birga, ularni to'g'rilash usullarini ham o'zida aks ettiradi. Mualliflar xatolarni mutlaqo yomon qabul qilmaslik, balki ularni til o'rganuvchilar bilimining bo'shliqlarini va til o'rganishda kreativlikni ko'rsatish vositasi ekanligini ham ta'kidlaydilar. Bundan tashqari maqolada til o'rganishda uchraydigan fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik kabi xato turlari tahlil qilinadi [7; B. 63-71.].

G.Jdanova va L.Almyashovalar o'zlarining "Языковые ошибки в переводах с иностранного языка на русский в письменных работах студентов вуза"(OTM talabalarining chet tilidan rus tiliga yozma tarjimalarida uchraydigan lisoniy xatolar) nomli maqolalarida nemis va ingliz tillaridan rus tiliga qilingan tarjimalarda uchraydigan xatolarga to'xtalib o'tishgan [2; B. 268-277.].

O'qituvchi tipik xatolardan qochish uchun til o'rganuvchilarni diqqatini jamlashga harakat qiladi. Chet til o'qitish metodikasida xatolar bilan ishlash borasida bir qator rus olimlari ham tadqiqot olib borganlar. Ularning xatolarni til o'rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida qayd etishadi. M.Lopinova, S.Morozova, N.Mironova va O.Kondratevalar oliy ta'lim muassasalari talabalarining og'zaki nutqida uchraydigan xatolari va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganishgan. M.Lopinova muloqotdagi ba'zi xatolar muloqotning tushunarligiga ta'sir etmasligi haqida yozadi [7; B. 63-71.].

I.Ovchinnikova va N.Ulyanovalar esa muloqot odobining sifati til o'rganuvchining bilimi va madaniy kompetentligiga ham bog'liq bo'ladi deb ta'kidlashadi [10; B. 229—233.]. Yana bir rus tadqiqotchisi P.Tishulin esa xatolarni to'g'rilashga o'rganishning hamma bosqichida va hamma dars olib boriladigan guruhlarda ahamiyat berishni tavsiya qiladi [12; B. 132—137.]. T.Bagdanova esa xatolarni to'g'rilash vaqti haqida fikr yuritib, ish bajarilib bo'linganidan keyin kechikib amalga oshirilgan muhokama va to'g'rilashlar eng kam samarali bo'lishi haqida yozadi [1; B. 66—69.].

Albatta xatolar bilan ishlashning psixologik tomonlari ham tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolmagan [11; B.41-44; 15; B.27-278.], ularning fikrlariga ko'ra til o'rganuvchilar o'z xatolarini muntazam ravishda qattiq tanbeh bilan to'g'rilashini xohlamaydi.

I.Zernova esa sirtqi ta'limda o'qiydigan talabalarning xatolarini to'g'rilash yanada muhim ahamiyat kasb etishi haqida yozadi [3; B. 337—349.]. Chunki ular oliy ta'lim muassasasida kam bo'ladilar. Bu davr mobaynida ularning xatolari bilan to'liq ishlashga vaqt yetmaydi. Shu sababli tadqiqotchi ularning og'zaki va yozma topshiriqlariga alohida yondashuv asosida fidbek berishni tavsiya qiladi.

A.Malinin va O.Nefyodorovlar ham o'z tadqiqotlarida chet tillarni o'rganish jarayonida xatolarni to'g'rilash haqidagi qarashlarini bayon etishgan. Ular asosan xatolarni qachon va qanday to'g'rilash muhim ahamiyat kasb etishini yoritib berishga harakat qilishgan. Ularning fikriga ko'ra ham, til o'rganishning dastlabki bosqichida xatolarni to'g'rilash muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi bosqichlarda esa bu rolni til o'rganuvchilarni o'zlariga berish kerak [8; B.6.].

Biz ham bu fikrga qo'shilamiz, lekin til o'rganuvchilarning bilim darajasidan kelib chiqqan holda, o'rganishning dastlabki bosqichidayoq o'z xatolarni o'zlari to'g'rilashga imkon berish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimiga chet tillar yo'nalishiga hujjat topshirayotgan abituriyentlarga chet tilida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lganliklari uchun tegishli til blogidagi maksimal ball berilishi yo'lga qo'yilganidan buyon tilni boshlang'ich o'rgatish bosqichida ham kuchli bilimli talabalar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ular kamroq xatoga yo'l qo'yishlariga imkon berayotganini qayd etish o'rinli.

V.Filonenko va A.Abramovalar esa o'z maqolalarida xatolarning tabiati va tipologiyasiga katta ahamiyat berishgan. Lekin maqolada nemis tilini o'rgatish va o'rganish emas, ingliz tilini ispan tilidan so'ng ikkinchi chet tili sifatida o'rgatish masalalari yoritilgan [13; B. 275-279.].

Shunga qaramay ularning fikrlaridan ham barcha chet tillarni o'rgatish va o'rganish jarayonida foydalanish mumkinligini qayd etish lozim.

N.Kondrashovning "Прогнозирование и исправление студенческих ошибок при обучении иностранным языкам" maqolasi ham alohida ahamiyatga ega deyish mumkin. Maqolada chet tilini o'qitishda til o'rganuvchilarning yozma nutqida uchraydigan xatolarning kelib chiqish sabablarini yoritishga harakat qilingan. Xatolar turli mezonlarga asosan klassifikatsiya qilingan. Bundan tashqari ijtimoiy-madaniy xatolarga alohida e'tibor qaratilgan. Xatolarni to'g'rilash uchun tavsiyalar hamda usullar keltirib o'tilgan. Tadqiqotda nemis va ingliz tilini o'rganayotgan rus tilli o'rganuvchilar bilan bir qatorda rus tilini o'rganayotgan chet ellik talabalarining ishlari tahlilga tortilgan. Muallifning fikriga ko'ra, to'g'ri tashkillangan xatolarni to'g'rilash til ta'limining optimizatsiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi [5; B.27.].

I.Lyovina esa o'zining "Ошибки и исправление ошибок в письменной речи на уроках иностранного языка" nomli maqolasida ham xatolarning klassifikatsiyasi keltirib o'tiladi. Tadqiqotchi tomonidan aynan nemis tilini o'rganishda og'zaki va yozma nutqda uchraydigan xatolar tadqiqqa tortilgani ahamiyatli hisoblanadi. Bu muallif ham o'z o'rnida xatolarni qanday to'g'rilash kerakligi borasidagi usullarni keltirib o'tgan [6; B.861.].

Yana bir rus tadqiqotchisi O.Flerov esa o'zining "Исправление ошибок в устной речи студентов в ходе коммуникативного обучения иностранным языкам" nomli maqolasida chet tillarni o'rganishda og'zaki nutqdagi xatolarning kommunikativ maqsadda to'g'rilanishi borasidagi fikrlarni berib o'tadi [14; B. 63-65.].

T.Nikolaeva va O.Taranovalar ham chet tillarni o'rganishda uchraydigan xatolar va ularni to'g'rilash usullarini o'zlarining "Способы исправления ошибок учащихся при изучении иностранного языка" mavzusida yozgan maqolalarida keltirib o'tadilar. Ularning fikrlariga ko'ra, xatolar tildagi shaklni aniq qo'llash hamda o'z fikrini to'g'ri yetkazib berishda muammolar keltirib chiqaradi. Muallif o'quvchilar ham og'zaki, ham yozma xatolarga yo'l qo'yishlarini va buni bartaraf etishda ko'p hollarda o'qituvchining yordami zarur ekanligini ta'kidlaydi [9; B. 211-214.].

Ushbu maqolani tayyorlashda mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganildi va tahlil qilindi, pedagogik kuzatuv, pedagogik prognozlash va tashxislash, ekspert baholash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini tadqiq etishda MDH olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yoritish yordamida, mavzuning o'rganilmagan qismlarini to'ldirish va ularni o'zbek tilli nemis tili o'rganuvchilarning xususiyatlari va nemis tilini mamlakatimizda o'qitilish jarayonidan kelib chiqqan holda yondashish lozim.

Muhokama. Dunyo mamlakatlarida chet tillarni o'rganish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar, ularni to'g'rilash usullari bir qator olimlar tomonidan tadqiqqa tortilganiga qaramay, o'zbek olimlarining metodikaga oid kitob va tadqiqotlarida xato tushunchasi, xatolarning turlari, o'zbek tilli o'rganuvchilarning nemis tilini o'rganish jarayonida yo'l qo'yadigan xatolari, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni to'g'rilash, ularni bartaraf etish kompetensiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa mavzuning monografik planda tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatadi. Bundan tashqari xatolarning til o'rganish jarayonining uzviy qismi ekanligi, uning har bir o'rganish bosqichida uchrashi,

noto'g'ri berilgan fidbek til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyalarini tushib ketishiga sabab bo'lishi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Natijalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. Og'zaki va yozma topshiriqlariga alohida yondashuv asosida fidbek berishga katta ahamiyat berish lozim.

2. Noto'g'ri berilgan fidbek til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyalarini tushib ketishiga sabab bo'lishini doim yodda tutish kerak.

3. O'qituvchilar xatolarni mutlaqo yomon qabul qilmasliklari, balki ularni til o'rganuvchilar bilimining bo'shliqlarini va til o'rganishda kreativlikni ko'rsatish vositasi ekanligini yodda saqlashlari kerak.

4. Til o'rganuvchilarni o'z xatolarini to'g'rilashga odatlantirib borish til o'rganishning hamma bosqichida va hamma dars olib boriladigan guruhlarda birdek ahamiyat kasb etishi lozim. Ayniqsa, til o'rganishning dastlabki bosqichlarida xatolarni muntazam to'g'rilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xatolarni to'g'rilash jarayoniga ijobiy munosabatda bo'lish, jarayonning samimiy kechishini ta'minlovchi omillarni aniqlashtirish, buning yordamida nemis tilini yanada samaraliroq o'rganish yo'llarni tadqiq qilish ushbu tadqiqotni yuqoridagi tadqiqotlardan ajratib turadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Богданова Т. Г. Роль исправления ошибок при обучении иностранному языку в неязыковом вузе / Т. Г. Богданова // Научный вестник Южного института менеджмента. — 2014. — № 4. — С. 66—69.
2. Жданова Г. А., Альмяшова Л. В. Языковые ошибки в переводах с иностранного языка на русский в письменных работах студентов вуза // Научный диалог. — 2018. — № 5. — С. 268-277.
3. Зернова И. Р. Значимость учебно-методической литературы по иностранному языку для самоорганизации учебной деятельности студента-заочника / И. Р. Зернова // Вестник Казанского технологического университета. — 2012. — Т.15. — № 9. — С. 337—349.
4. Калиниченко Э. Б. Роль языковых ошибок при обучении иностранному языку / Э. Б. Калиниченко, Л. М. Иванова, М. Н. Раздобарова, А. В. Ланина // Международный научно-исследовательский журнал. — 2016. — № 4—3. — С. 50—52.
5. Кондрашова Н. В. Прогнозирование и исправление студенческих ошибок при обучении иностранным языкам // Научный диалог. — 2015. — № 7 (43). — С. 27-47.
6. Лёвина И. А. Ошибки и исправление ошибок в письменной речи на уроках иностранного языка // Экономика и социум. — 2022. — № 4-3 (95). — С. 860-864.
7. Лопинова М. Н. Понятие «ошибка», причины возникновения и классификация ошибок в методике преподавания иностранного языка / М. Н. Лопинова, С. А. Морозова, Н. В. Миронова, О. И. Кондратьева // Известия Великолукской государственной сельскохозяйственной академии. — 2016. — № 3. — С. 63—71.; Данилина Е. К. Контроль сформированности иноязычных письменно-речевых

- умений при помощи мобильных приложений : теоретико-методическая модель / Е. К. Данилина // Научный диалог. — 2018. — № 3. — С. 253—266.
8. Малинин А. Б., Нефёдов О. В. Исправление ошибок студентов при изучении иностранных языков //Филологический аспект. – 2015. – №. 7. – С. 6-6.
 9. Николаева Т. В., Таранова О. Л. Способы исправления ошибок учащихся при изучении иностранного языка //Тенденции развития современного образования: научно-образовательная практика и парадигмы воспитания. – 2015. – С. 211-214.
 10. Овчинникова Н. И. Практические приемы предупреждения и исправления ошибок в языковой аудитории / Н. И. Овчинникова, Н. П. Ульянова // Актуальные вопросы теории и практики современного языкового образования : Материалы Региональной научно-практической конференции. — Издательство: Воронежский государственный университет. — 2012. — С. 229—233.
 11. Семич Ю. В. Подходы к исправлению ошибок в обучении иностранным языкам / Ю. В. Семич // Современное языковое образование : Инновации, Проблемы, Решения: сборник научных трудов. — Москва : Издательство Московского Государственного Гуманитарного Университета им. М. А. Шолохова (Москва). — 2015. — С. 41—44.;
 12. Тишулин П. Б. Виды языковых ошибок и возможности их исправления при обучении иностранному языку / П. Б. Тишулин // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Гуманитарные науки. — 2012. — № 1. — С. 132—137.
 13. ФИЛОНЕНКО В. А., АБРАМОВА А. Г. Ошибки и способы их исправления при обучении иностранному языку //ЛИНГВИСТИКА, ЛИНГВОДИДАКТИКА, ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2015. – С. 275-279.
 14. Флеров О. В. Исправление ошибок в устной речи студентов в ходе коммуникативного обучения иностранным языкам //Высшее образование сегодня. – 2012. – №. 7. – С. 63-65.
 15. Чеканова С. А. Методы исправления ошибок в письменной речи / С. А. Чеканова // Вестник МГИМО университета. — 2013. — № 5 (32). — С. 276—278.;
 16. Jalolov J. Chet til o`qitish metodikasi. T.: -O`qituvchi, 2012. 416 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).